

O'ZBEKISTON SSSRDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI ISLOHATLAR VA UNDA POYABZAL SANOATINING AHAMIYATI

Botirova Nargiza

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16350820>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sanoat sohasiga Sovet mustamlakachiligi davridagi o'zgarishlar, yengil sanoat sohalarida bo'lgan o'zgarishlarga qaratilgan islohatlar va ularning tarmoqlariga shu bilan birga hali yoritilmagan poyabzal sanoatiga ham bir nazar solingan va ilmiy izohlar berish orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sanoat, yengil va og'ir sanoat, to'qimachilik kombinatlari, xom ashyo, poyabzal tarixi.

Jamiyat taraqqiy etishi uchun muhim hisoblangan sohalarni o'rganish bugungi kun tarixchilarning eng ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi davrimiz taraqqiyotining asosiy bo'g'ini bo'lgan xalqimizni ish bilan ta'minlash eng muhim dasturlardan biridir. Bu dasturda ishchilarning aksariyati yengil sanoat sohasida ishlashi tizimining yaratilish tarixini va taraqqiyot yo'lini o'rganish ham tarixiy masalalardan biri deyish mumkin.

Hozirgi davrda sanoat korxonalari va ular yaratadigan mahsulot nihoyatda xilma-xil. Ularning turlari innovatsiya jarayonida va o'zgaruvchan, iste'mol ehtiyoji ta'sirida yanada ortib bormoqda. Binobarin, bunday murakkab tarkibga ega bo'lgan sanoat ishlab chiqarishini boshqarish va o'rganish uchun sanoat korxonalari turli guruhlariga ajratiladi. Sanoat tarmoqlari ma'lum mezonlarga asoslanadi. Bu tarmoqlar xom ashyo birligi, mahsulotni qaysi maqsadda yaratilganligi hamda texnologik jarayonning umumiylikiga ko'ra asoslanadi.

Sanoat tarmoqlari orasida eng qadimgilaridan biri yengil sanoatdir. Hozirgi zamon sanoat ishlab chiqarishining negizini ham aynan shu tarmoq tashkil qiladi. Xom ashyo asosan yengil sanoatning birlamchi bo'g'inlarini, masalan, paxta tozalash, jun yuvish, teri oshlash korxonalarini joylashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, O'zbekistonda yuzdan ortiq paxta tozalash zavodlari bevosita paxta yetishtiradigan qishloq tumanlarida joylashtirilgan. O'zbekiston hududida qadimdan ba'zi sanoat turlari mavjud bo'lgan (tog'-kon sanoati, metal eritish, to'qimachilik va b.).

Hozirgi zamon sanoatining dastlabki korxonalari esa XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelgan. XX asrning ikkinchi yarmi, eng avvalo, rangdor metallurgiya, neft-gaz (xususan gaz), kimyo, elektr energetika kabi og'ir sanoat tarmoqlarining faol rivojlanib borishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, bu davrda qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat (to'qimachilik, yog'-moy, konserva, vino va noalkogol ichimliklar ishlab chiqarish va b.) sanoati korxonalari ham ko'plab qurilgan. Og'ir sanoat markazlarida (ko'mirchilar, metallurklar, mashinasozlar shaharlarida) ayollar mehnatidan samarali foydalanish uchun ham yengil sanoat, xususan to'qimachilik korxonalari joylashtiriladi. Bu sohada kichik biznes va hususiy tadbirkorlik ham keng tarqalganligini ko'rish mumkin. To'qimachilik kombinatlarining qator filliallari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Farg'ona viloyatlarida barpo etilgan va ular mahalliy xom ashyo hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Yengil sanoat tarmoqlaridan biri poyabzal sanoati haqida deyarli kam manbalar o'rganilgan. Hali bizga noma'lum bo'lgan yangiliklar arxiv fondlarida saqlanib turibdi. Shulardan bir nechtasini keltirib o'tamiz.

O'zbekiston II jahon urushidan so'ng ko'p sohalarda yangiliklarga guvoh bo'ldi. Yengil sanoat ko'proq vodiy hududida rivojlangan bo'lib, dastlabki harakatlar shu hududlarda olib borilgan. Masalan, 1962-yilda Qo'qonda poyabzal fabrikasi qurildi, qurilish mollari ishlab chiqaruvchi zavod, gaz apparaturalari zavodi, ham shu yerda ishga tushirildi.

Milliy arxiv fondlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, 1963-yil 15-iyulda Toshkent shahridagi O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodiy rayon sanoati va qurilish xodimlari partiya xo'jalik faollarining yig'ilishida poyabzal sanoatida bir xil mahsulotlar ishlab chiqarishni konsentratsiyalash hisobiga poyabzal ishlab chiqarishni 1,5 mingga oshirish rejalashtirilgan, yakka mehnat unumdorligi 4,2% ga oshirish lozimligi belgilangan[8]. Farg'ona oyoq kiyim fabrikasi, Qo'qon oyoq kiyim fabrikasi, Farg'ona shoyi to'qish fabrikalari ham ittifoq manfaatlari uchun mahsulot ishlab chiqarar edi. 1966-1970 -yillarda O'zbekiston yengil sanoat vazirligi huzuridagi korxonalarda 5 mingdan ortiq yangi model joriy etildi va 80 ta nomdan ko'proq yangi mahsulotni ishlab chiqarish o'zlashtirildi. 1970-yilda tuzilishi va to'qilishi jihatidan yangi bo'lgan 45 xil gazlama, 40 xil paypoq buyumlari, tikuvchilik mahsulotlari va poyabzalning yuzlab yangi xillari ishlab chiqarish joriy etildi[6]. 1972-yil 1-yanvarga kelib respublika yengil sanoatida 450 ta korxona, shu jumladan, yengil sanoat vazirligiga qarashli 62 ta korxona, paxta tozalash sanoati vazirligiga qarashli 102 ta korxona faoliyat yuritdi[7]. Biroq, 1971-1975-yillarga kelib ham birgina Qo'qondagi paypoq to'qish kombinati yillik rejani bajara olmaganligi ta'kidlanadi. Sarflangan elektr energiya quvvatini ham qoplay olmagan. Shunda ham turli xildagi korxonalar qurilavergan. 1972-yilda Qo'qon shahrining o'ziga 500 nafar mutaxassis kadrlar Krasnodarsk, Orenburg, Ukrainadan keltirilib, bular ichida poyabzal fabrikasiga ham muxandis-texniklar keltirilgan edi[1]. Biroq, Respublika komiteti o'tkazgan tekshirishda aniqlashicha poyabzal sanoati korxonalarida sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishga haligacha chek qo'yilmagan. Ularning ko'p qismi savdo tashkilotlaridan qaytarib yuborilgan va ular omborlarda belgilangan miqdordan ortiqcha kasod molar sifatida to'planib qolgan[3]. Xatto "N" (Yangilik) indeksi bilan chiqarilgan poyabzallar ko'p hollarda ko'rimsiz bo'lib, oddiy poyabzaldan sira farq qilmas edi, ularning konstruksiyasi oddiy va eskirgan modelda edi. Shunday tekshirishlar natijasida Yengil sanoat vazirligi va poyabzal korxonlari rahbarlari tarmoqdagi ish holatini yaxshilash choralarini ko'ra boshladilar. Ishlab chiqarishning texnologik jarayonlariga rioya qilish ustidan nazorat kuchaydi, shartnoma intizomini mustahkamlash ishlari avj oldirildi, natijada keyingi yillarda o'tmay kasod bo'lib qolgan mollar uch baravardan ko'proq kamaydi.

1984-yil 10-yanvardagi O'zbekiston SSR Oliy Sovetining to'qqizinchi sessiyasida Oliy sovet raisi E.Yusupov deputatlar yig'ilishida komissiyalar xalq iste'moli tovarlari assortimenti juda sekin yangilanayotganligi va kengayayotganligi qayd etadilar. Keksalar kiyadigan poyabzallar hali ham savdoga kam chiqayotganligini aytib o'tdilar[9]. Bolalar poyabzalining sifatsizligi haqida ham ko'p ta'nalar eshitilganligi va vazirlar e'tiborini kuchaytirish zarurligini aytib o'tdilar. Biroq, sovetcha dabdababozlik holatlari ham yuqori edi. Masalan, bu sessiyada so'zga chiqqan Farg'ona viloyati, Qo'qon paypoq-yigiruv kombinatining yigiruvchisi bo'lgan deputat L.A.Feoktistova 1983-yil dekabrda Plenumi va SSSR Oliy Sovetining to'qqizinchi sessiyasi qarorlaridan olgan taassurotlari yuqori ekanligi sanoat ishlab chiqarish hajmi yaxshilanayotganligini aytadi[10].

1988-yilda Respublika komiteti o'tkazgan tekshiruv ishlarida aniqlanishicha, poyabzal sanoati korxonalarida sifatsiz mahsulot ishlab chiqarish holatlari davom etgan. Ularning ko'p

qismi savdo tashkilotlaridan qaytarib yuborilgan va ular belgilanganidan ham ortiqcha chiqarilib, kasod mollar sifatida omborlarda qolib ketgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, yengil va og'ir sanoatga rus millatiga mansub, rusiyzabon ishchilarni joylar edi. Chet eldan kadrlar ishga olib kelinar edi. Tezkor qurilgan korxonalarning kimyoviy changlar, gazlarni ushlab qoluvchi filtr turbalari yetishmagan. O'zbekistonda sanoat korxonalari qurish ko'paygani sari mahalliy xalq vakillari sanoat sohasiga bo'lgan qiziqishi kuchayib boraverdi. Mamlakatda yagona xalq xo'jaligi, urushdan keyingi yillarda sanoatning rivojlantirishning o'ziga xos xususiyati uni rivojlantirishni yuqoriga ko'tarish, ishlab chiqarishning ko'p tarmoqli strukturasi paydo bo'lganligi, fan-texnika yutuqlari tez joriy etilganligi, ishlab chiqarish vositalarining eng ilg'or turlari o'zlashtirilganligi ham usha davr uchun katta yangiliklar edi. Bu ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, har bir yutuqlarning ham kamchiliklari bo'lgan va bu kamchiliklar asta-sekin to'g'rilanib borilgan. Oddiy xalq hayotida ko'plab qiyinchiliklarga uchradi va buni katta sabr bilan yengdi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фарғона вилояти давлат архиви. 178-фонд, 30-рўйхат, 50-йиғма жилд, 39-варақ.
2. Наманган ҳақиқати. 1989 йил 1 август сони.
3. Рахимова Г.С. XX асрнинг 50-90 йилларида Фарғона водийси sanoat ривожининг экологик ҳолатга таъсири. Фалсафа фан. докт. дисс... – Тошкент. 2018. - Б. 71.
4. Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Toshkent: Fan, 2014. – 61 b.
5. Ташкентская правда. 17 июня 1989 года.
6. Yusupova G.T. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy hayotida Farg'ona iqtisodiy rayonining o'rni (XX asrning 50-80-yillari). Tarix fanlari bo'yicha falsafa (PhD) diss. Toshkent, 2022. – 85 b.
7. Зиёдуллаев Н. Ўзбекистон енгил саноатини ривожлантириш истиқболлари. – Тошкент: Фан, 1972. – 15 б.
8. ЎзМА 2312-фонд, 1-рўйхат, 6-йиғма жилд, 5-варақ.
9. Ўзбекистон ССР Олий Советининг мажлислари. Бешинчи сессия. Стен. ҳисобот. – Тошкент. 1988, Б. 99.
10. Ўзбекистон ССР Олий Советининг Мажлислари. Тўққизинчи сессия. Стен. ҳисобот. – Тошкент. 1984. – Б. 31